

„TUN PANJARALARI” QISSASIDA RAMZIYLIK

Umaraliyeva Dilnoza Shukurjon qizi

*BuxDU filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek modern adabiyoti vakili Nazar Eshonqulnin „Tun panjaralari” qissasi tahlil qilingan. Asarning noodatiy badiiy talqin uslubi haqida mulohazalar bildiriladi. O‘ziga xos jihatlari haqida xulosalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek modern adabiyoti, „Tun panjaralari”, qissa, ramzlar, o‘ziga xos xususiyatlar.

Kirish. Keyingi yillarda yaratilyotgan badiiy asarlarda inson ichki dunyosini yoritishga intilish kuchayib borayotganini sezish mumkin. Endilikda kitobxon o‘rganib qolgan an’anaviy yozish uslubidan farqli o‘laroq, modernistik uslubda yozilgan asarlar kitobxonlarning kitob javonidan joy oldi. Inson tafakkuri, fikri, xayoli bilan bir qatorda ijtimoiy hayot ham o‘zgaradi. Hayot va dunyoqarash o‘z-o‘zidan adabiyot mazmuni ham o‘zgarib boradi.

Nazar Eshonqulning „Tun panjaralari” qissasi fikrimizni ma’lum darajada tasdiqlaydi. Qissada inson ma’naviyati, o‘zligini anglashi kabi masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Yozuvchi asar qahramonini ismini bildirmaydi. Bu esa asar voqealarining har bir kitobxonga tegishli ekanligini bildiradi. Asar qahramoni o‘zining menini qidirayпти. „Hayotga nima uchun keldim?”, „Nima maqsadda yashayapman?” - degan savollarga javob qidirayotgan shaxsdir. „Mana tun. Tunda mening boshqalarnikiga o‘xshamagan umrim boshlanadi”, -deb asar qahramoni kitobxonga o‘z hayotini tanishtirmoqchi bo‘ladi. [3,2]. U tunda o‘tgan kunlari va kelajagi bilan uchrashadi, ular xuddi so‘nayotgan yulduzlardek ko‘z oldidan o‘tadi. So‘nayotgan yulduzlar-bamisoli ushalmagan orzu-umidlar. Qahramon deraza orqali o‘zining dunyoqarashini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Deraza yonida qurbaqa qurilmaydi. Bu esa uning atrofida dunyoqarashi turli xil bolgan insonlarning nag‘malaridir.

Bilamizki, olma an’anaviy ramz hisoblanadi. Olma- sevgi-muhabbat ramzi. Lekin Nazar Eshonqul olma orqali bolalikni tasvirlaydi: „Shunda mening hayolimga - balki bola uzoqlarda, mening o‘tmishimda yig‘layotgandir”. „Men bolalik olmasining aynigan, buzilgan tomoniman”. [3, 2]. Kishilar olma yeyishsa, aynigan, chirigan qismini kesib tashlashadi. Asar qahramoni endi nima qilishi kerak ekanligini anglab yetsa, u ham umr olmasining chirigan qismini kesib tashlashi kerak. Shayton- behuda o‘tkazgan onlari, uni yo‘ldan ozdirmoqchi bo‘lgan iblis. U asar qahramoni yolg‘iz qolganda tinmay ta‘qib etuvchi, unga soyadek bo‘lib qolgan. Asar qahramoni ham savollarga javob topolmay: „Men hanuzgacha tushunolmayman. Shaytonning nimaga

ishqi tushdi ekan? "- degan o'ylar bilan yurar edi. [3, 4]. Shayton asar qahramonini tinmay masxara qililar, raqsga tushar edi. Hattoki bolalik chog'ida ro'za tutganida onasi hech kim yo'qligida narsa yeb ol , xudo ham ko'rmaydi" ,- deydi. Balki shaytonlik qahramondan bolalik chog'idan paydo bo'lgan. Botqoq va badbo'y is - yomon illatlar ramzi. Badbo'y is hech kimga yoqmagani kabi yomon illatlar ham yoqmaydi. Gul-go'zallik ,umid ramzi.

Yozuvchi asar qahramoni iblis bilan birga yashayotgan insoniyatga murojaat qilib, so'nggi adashgan inson bo'lishini aytib hayqiradi.

Muhokama. Modernizm - aslida bu bir - biri bilan kurash olib borgan ,o'zicha mustaqil harakat qilgan alohida modernistik uyushmalar , manifestlar , dasturlar (masalan, Lotin Amerikasida simvolizm o'zicha modernizm nomini olgandi) majmuasidir. [5, 38]. Nazar Eshonqul qissalarining uslubi va tilini tadqiqotchi F. Rajabova „Tun panjaralari " qissasida muallif ramzlarni ikki guruhga ajratib ko'rsatadi. [1,8]. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning ta'riflashicha, „San'atning ijtimoiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy kabi turli nobadiiy bo'g'ovlardan ustun turadigan erkin va ozod hodisa ekaniga ustuvorlik beradigan estetik strategiyaga tayanish modernistik yo'nalishning asosiy belgisi sanaladi. [2,391].

Xulosa. Nazar Eshonqulning ijodi bilan tanishgan o'quvchilar uning asarlarida o'zligini anglashga harakat qilayotgan qahramonlarni ko'radilar. Har bir asari falsafiylik bilan yaratilgan. Bir marta o'qilganida tushunilmaydi, lekin qayta o'qilgach tushunish mumkin. Bunday asarlarni o'qish inson tafakkurini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

„Badiiy tafakkur azaldan abadga qadar olam va odam uyg'unligini muhokama qiladi , insonni ilohiy uyg'unlik rishtalari bilan bog'lab turadi. Badiiy tafakkur esa o'zining maqomiga chiqq olgan asarni o'zining aql o'yiniga - idrok tegirmoniga tashlaydi - aynan ana shu tasavvur va tafakkur o'yiniga erishish bugungi asl adabiyotning orzusidir"-deb yozadi adibning o'zi. [4 , 243]. Haq mulohazalarga qo'shilmasdan iloj yoq.

Adabiyotlar:

1. F.Rajabova. „Til va adabiyot " jurnali, 2021-yil, 8-son.
2. Yo'ldoshev Q. „ Badiiy tahlil asoslari ",T.:„ Kamalak" , 2016.-464 b.
3. Nazar Eshonqul. „Tun panjaralari". T.: „Sharq".2018. -2-4-b
4. Nazar Eshonqul. „Ijod falsafasi ",T.: -243b